



16-17 YOSHLI FUTBOLCHILAR TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Islomov I.I.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: texnik-taktik harakatlar, aylanma mashg'ulot, mashg'ulotlarni tashkil etish.

Ключевые слова: технико-тактические действия, вахтовая подготовка, организация тренировок.

Key words: technical-tactical actions, rotational training, organization of training.

Dolzarliligi. O'zbekistonda yoshlar o'rtasida ishtirok etayotgan yoshlar jamoasida faoliyat olib boradigan futbolchilarning texnik-taktik harakatlari samarasizligini ko'rishimiz mumkin. Bundan yosh futbol jamoalari o'yin olib borish harakatlarini kuchaytirishimiz ularda texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirishimiz kerak deb o'ylaymiz. Futbolchilarimizni yanada yuqori natijalarga egallashlarida futbolchilardan yuqori darajada texnik-taktik tayyorgarlikni talab qildi. Shu sababdan biz futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarliklariga e'tibor qaratishimiz kerak. Futbolchining texnik-taktik tayyorgarligini tarbiyalash sport mashg'ulotlar muhim jihatlaridan biri sanaladi.

Futbolchining mashg'ulotlarida texnik-taktik ko'nikmalarini shakllanishi bilan uzviy bog'liq yangi texnika va taktikni tayyorgarlik turlarini joriy etish lozim. Ana shu jarayonga xizmat qiluvchi mashqlarni sport mashg'ulotlarida qat'iy izchillikda va ketma-ketlikda olib borish kerak. Bugungi kunda futbolchilarning taktik tayyorgarlikni tarbiyalash uchun maxsus vositalardan, mashqlar majmuasidan foydalanishni taqozo etadi. Shuning uchun xam biz tanlagan mavzu dolzarbliligi bilan ajralib turadi.

Futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini oshirish masalalari bo'yicha ko'pchilik mutaxassis olimlar tomonidan o'rganilgan [1,2,3,4,5,6]. Bu mualliflar fikriga binoan, texnika va taktik harakatlarni shakllantirish va oshirish masalalari turlicha uslub, vositalar va yondoshuvlar asosida hal qilinishini ta'kidlashgan.



Bunday mahoratni namoyish etish uchun futbolchilardan bir-birini tushunib texnik-taktik harakatlanish bajarishlarini harakatlarini talab qiladi. Ayni kungacha futbolchilarni tayyorlash amaliyotida qo‘llanilib kelinayotgan ilg‘or tajribalar va tadqiqotlar natijalari hech qanday shubha uyg‘atmaydi.

Ishning maqsadi. Yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari.

- o‘yinlar davomida futbolchilarning texnik-taktik harakatlarini o‘rganish.
- futbolchilar tomonidan bajariladigan texnik-taktik harakatlarini samarali bajarilishida aylanma mashg‘ulotlarning ta’sirini tahlil qilish.

Ilmiy uslublardan foydalanilish. Yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etish quyidagi ilmiy uslublar asosida amalga oshirildi:

1. Ilmiy adabiyotlar tahlili va ularni umumlashtirish;
2. Pedagogik kuzatish;
3. Pedagogik tajriba;
4. Matematik-statistik usullar.

Natijalar tahlili. Bizning nazorat (BO‘SM№1) va tajriba (BO‘SM№2) guruhi sifatida tanlab olingan 16-17 yosh tarbiyalanuvchilarning texnik-taktik tayyorgarligini qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida, bizning tomonimizda pedagogik kuzatishlar olib borildi. Birinchi musobaqa davrida ular tomonidan musobaqa sharoitida amalga oshiriladigan texnik-taktik harakatlarni aniqlashga harakat qildik. Musobaqa davrida biz tomonimizdan nazorat (BO‘SM№1) va tajriba (BO‘SM№2) guruhida tarbiyalanyotgan 16-17 yoshli futbolchilarning o‘yin davomidagi texnik-taktik haraktlarini 10 ta o‘yin davomida o‘rgandik va qo‘yidagi 1-jadvalda natijalarni o‘rtacha ko‘rsatgichda keltirdik. Jadvaldan ko‘rinib turibiki, nazorat guruhining jamoaviy texnik-taktik harakatlari soni va samaradorlik ko‘rsatkichining natijalari, tajriba guruhining yosh tarbiyalanuvchilari ko‘rsatgan jamoaviy texnik-taktik harakatlarni soni va samradorliginidan yuqoriligini ko‘ramiz.

O‘yin davomida nazorat guruhi sifatida olingan “BO‘SM№1” jamoasining 16-17 yoshli tarbiyalanuvchilar o‘yin davomida o‘rtacha (X) 483 ta jamoaviy texnik-taktik harakatlarni amalga oshirganlar. Ularning samarali harakatlari 312 (65%) ta texnik-taktik harakatlarni va samarasiz harakatlar 171 (35%) tani tashkil etganligini olingan 10 ortiq o‘yinlarni kuzatishlardan aniqlandi. “BO‘SM№2” tarbiyalanuvchilari esa o‘yin davomida o‘rtacha 475 ta jamoaviy texnik-taktik harakatlarni bajarishgan bo‘lib, 291 (61%) tasi samarali yakunlanganligini va 184 (39%) ta texnik-taktik harakatlar samarasiz yakunlanganligini ko‘ramiz.

Nazorat guruhining (BO‘SM№1) yosh futbolchilari o‘yin davomida o‘rtacha to‘pni oshirib berishda jami 262 tani, samarali to‘p uzatishlar 198 (76%) samarali yakunlanganligini ko‘ramiz. Bundan qisqa masofaga to‘p oshirib berish harakatlarida 115 (88%) tani, o‘rta masofaga to‘p oshirib berish harakatlarida 85 (75%) tani, uzoq masofaga to‘p oshirib berish harakatlarida 62 (52%) tani tashkil etganligini aniqlagan bo‘lsak, tajriba guruhining yosh futbolchilarida to‘pni oshirib berishdagi samaradorlik ko‘rsatichlari sustligini aniqladik. Ya‘ni, o‘yin davomida o‘rtacha to‘pni oshirib berishda jami 278 tani samarali to‘p uzatishlar 201 (76%) samarali yakunlanganligini ko‘ramiz. Bundan qisqa masofaga to‘p oshirib berish harakatlarida 116 (87%) tani, o‘rta masofaga to‘p oshirib berish harakatlarida 91 (72%) tani, uzoq masofaga to‘p oshirib berish harakatlarida 71 (48%) tani tashkil etishni ko‘ramiz.

Qolgan texnik harakatlarni bajarishda ham biz tajriba guruhi sifatida olgan “BO‘SM№2” jamoasining yosh tarbiyalanuvchilarining natijalari nazorat guruhi sifatida olingan “BO‘SM№1” natijalaridan pastligini aniqladik. Pedagogik kuzatishlardan olingan natijalarni o‘quv-mashg‘ulot jarayonida e‘tiborga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etdik deb o‘ylaymiz.

Dastlabki olingan natijalarga e‘tibor berganimizda nazorat va tajriba guruhi sifatida tanlab olingan tarbiyalanuvchilarning texnik-taktik tayyorgarligini orasida tajriba guruhining natijalari salbiy ekanligini qayd etgan edik. O‘quv-mashg‘ulot jarayonida aylanma mashg‘ulotlar so‘ng biz tomonimizdan nazorat va tajriba guruhida tarbiyalanyotgan 16-17 yoshli futbolchilarning o‘yin davomidagi jamoaviy texnik-taktik haraktlarini 10 ta o‘yin davomida qayta o‘rgandik va qo‘yidagi 1-jadvalda natijalarni o‘rtacha ko‘rsatkichda kayta keltirdik. Dastlabki jadvaldan ko‘rigan edikki, nazorat guruhining texnik-taktik harakatlarini soni va samaradorlik ko‘rsatkichidagi natijalari, tajriba guruhining tarbiyalanuvchilari ko‘rsatgan texnik-taktik harakatlarni soni va samaradorligidan yuqoriligini, tadqiqot so‘ngida biz bu natijalarni aksini ko‘rdik.

Nazorat guruhi sifatida olingan “BO‘SM№1” jamoasining 16-17 yoshli tarbiyalanuvchilari o‘yin davomida qayta olingan natijalarini o‘rtacha ko‘rinishida keltirilgan (X), jamoa 492 ta texnik-taktik harakatlarni samarali harakatlari 316 (64%) tani samarasiz harakatlar 176 (36%) tani tashkil etayotganligini ko‘ramiz. Tajriba guruhi sifatida olingan “BO‘SM№2” tarbiyalanuvchilari esa o‘yin davomida o‘rtacha 488 ta texnik-taktik harakatlarni bajarishgan bo‘lib, 326 (67%) tasi samarali yakunlanganligini va 162 (33%) ta texnik-taktik harakatlar samarasiz yakunlanganligini ko‘ramiz. Jami natijalarga e‘tibrimizni qaratsak, nazorat guruhining futbolchilarining natijalarida o‘zgarishlar ko‘zatilmadi.



Nazorat (BO‘SM№1) va tajriba (BO‘SM№2) guruhining 16-17 yoshdagi futbolchilarning 10 o‘yin davomidagi jamoaviy texnik-taktik harakatlari

Texnik-taktik harakatlar	“BO‘SM№1”								“BO‘SM№2”							
	Samarali harakatlar Σ+		Samarasiz harakatlar Σ-		Jami Harakatlar Σ		SK %		Samarali harakatlar Σ+		Samarasiz harakatlar Σ-		Jami harakatlarΣ		SK%	
	1	2	1	2	1	2	1	2	1	2	1	2	1	2	1	2
Qisqa masofa (1-10)	102	109	13	14	115	123	88	88	101	113	15	13	116	126	87	89
O‘rta masofa (11-20)	64	65	21	24	85	89	75	73	66	63	25	19	91	82	72	77
O‘zoq masofa (20 m uzoq)	32	32	30	29	62	61	52	52	34	35	37	28	71	63	48	56
Jami	198	206	64	67	262	273	76	76	201	211	77	60	278	271	72	78
Raqibni aldab o‘tish	41	45	54	47	95	92	43	50	38	44	53	45	91	89	42	49
To‘pni olib qo‘yish	49	40	28	35	78	75	54	53	33	39	32	32	65	71	51	55
Havoda kurash	13	14	10	11	23	25	56	56	10	18	9	12	19	30	52	60
Boshda zarba berish	1	2	4	4	5	6	20	33	1	2	3	3	4	5	25	40
Oyoqda zarba berish	6	9	14	12	20	21	30	43	5	12	13	10	18	22	27	54
Jami	308	316	175	176	483	492	64	64	288	326	187	162	475	488	60	67

1- tadqiqotdan oldin

2- tadqiqotdan so‘ng

Tajriba guruhida shug‘ullangan yosh futbolchilarning natijalarida texnik-taktik harakatlarni to‘g‘ri bajarish harakatlarini ijobiy tomonga o‘zgartirganligini aniqladik.

Nazorat guruhining futbolchilarining qayta olingan natijalarda o‘yin davomida o‘rtacha to‘pni oshirib berishda jami 273 tani samarali to‘p uzatishlar 206 (76%) samarali yakunlanganligini ko‘ramiz. Bundan qisqa masofaga to‘p oshirib berish harakatlarida 123 (88%) tani, o‘rta masofaga 89 (73%) tani, uzoq masofaga 61 (52%) tani tashkil etganligini aniqlagan bo‘lsak, tajriba guruhining yosh futbolchilarida to‘pni oshirib berishdagi samaradorlik ko‘rsatichlari tadqiqotdan so‘ng ijobiy tomonga o‘zgartirganligini guvohi bo‘ldik. Ya‘ni o‘yin davomida o‘rtacha to‘pni oshirib berishda jami 271 tani samarali to‘p uzatishlar 211 (78%) samarali yakunlanganligini ko‘ramiz. Bundan qisqa masofaga to‘p oshirib berish harakatlarida 126 (89%) tani, o‘rta masofaga 82 (77%) tani, uzoq masofaga 63 (56%) tani tashkil etishni ko‘ramiz.

Dastlabki olingan natijalarda qolgan texnik harakatlarni bajarishda ham biz tajriba guruhi sifatida olgan “BO‘SM№2” jamoa yosh tarbiyalanuvchilarining natijalari nazorat guruhi sifatida olingan “BO‘SM№1” natijalaridan pastligini aniqlagan edik. Tadqiqotdan so‘ng esa bu natijarani tajriba guruhi tomoniga o‘zgartirganligini ko‘ramiz. Pedagogik kuzatishlardan olingan natijalarni o‘quv-mashg‘ulot jarayonida e‘tiborga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etishimiz orqali natijalarni o‘zgarishiga erishdik. Ayniqsa bu texnik-taktik harakatlarni o‘zgarishiga aylanma mashg‘ulotlarning o‘rni katta bo‘ldi.

Xulosa. Olingan natijalardan xulosa qilsak, ikkala jamoaning o‘yining oxiriga borib texnik-taktik harakatlarning soni va samaradorligida pasayish kuzatildi. Ayniqsa tajriba guruhining tarbiyalanuvchilarining texnik-taktik harakatlarning soni va samarali harakatlarining keskin tushishi ham kuzatildi. Bundan nazorat va tajriba gurhlarining tarbiyalanuvchilarining texnik



tayyorgarligi yuqori darajada emasligidan daraka beradi. O'quv-mashg'ulot jarayonida aylanma mashg'ulotlarni olib borishda stansiyalarda texnik-taktik harakatlarga oid mashqlarni kiritish orqali o'yin davomidagi natijalarni sezilarli darajada o'sganligini aniqladik. Texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirishda aylanma mashg'ulotlarni olib borish eng samarali usul hisoblanar ekan.

Adabiyotlar:

1. Gerasimenko A.P. Sovershenstvovaniye osnov texniko-takticheskogo masterstva yunyx futbolistov. - Volgograd, VGAFK, 2002.
2. Godik M.A. Komandnye, gruppovye i individualnye futbolnye up-rajneniya i ix sootnosheniye v trenirovках yunyx futbolistov / Godik M.A., Shamardin A.I., Xalil I. // Teoriya i praktika fiz. kultury. - 1995. - № 5-6.
3. Godik M.A., Adel Masud Omar Said, Papayev V.Ye., Kuzmichev D.V. Re-sheniye takticheskix zadach: kontrol i otsenka / Futbol: Yejegodnik. – 1999. – M.: Fizkultura i sport, 1999.
4. Golius S.T. Znachimost parametrov dvigatelnoy funktsii dlya proyavleniya spetsialnoy rabotosposobnosti yunyx sportsmenov 7-10 let // Fizicheskoye vospitaniye studentov tvorcheskix spetsialnostey / XGADI (XXPI). - Xarkov, 2003. - № 3. - S. 66-74.
5. Golomazov S.V. Teoriya i metodika futbola: Texnika igrы: T. 1. - M.: Sport-Akadem-Press, 2002.
6. Jelyazkov S.V. O nekotoryx postoyanno deystvuyushix faktorax v sovremennoy sportivnoy trenirovke // Teoriya i praktika fizicheskoy kultury. -1998.-№11.-S. 41-44.
7. Iseev Sh.T. Analiz atakuyuhix deystviya futbolistov vysokoy kvalifikatsii/ Jurnal. "Fan sportga" №1, 2004. –45-47s
8. Nurimov R.I. Texniko-takticheskaya i fizicheskaya podgotovka kvalifitsirovannyx futbolsitov: Uchebnoye posobiye.-T., 2001.-135s.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada 16-17 yoshli futbolchilarning texnik-taktik harakatlarning samaradorligini oshirish masalalari keng yoritib berilgan. Shuningdek, maqola davomida 16-17 yoshli futbolchilarning mashg'ulotlarida texnik-taktik ko'nikmalarini shakllanishi bilan uzviy bog'liq yangi texnika va taktik tayyorgarlik turlarini joriy etishga alohida urg'u berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье широко освещены вопросы повышения эффективности технико-тактических действий футболистов 16-17 лет. Также в ходе статьи особый акцент был сделан на внедрении новых приемов и видов тактической подготовки, которые органически связаны с формированием технико-тактических навыков в подготовке игроков 16-17 лет.

SUMMARY

In this article, the issues of improving the efficiency of technical and tactical actions of 16-17-year-old football players are widely covered. Also, in the course of the article, a special emphasis was placed on the introduction of new techniques and types of tactical training that are integrally related to the formation of technical and tactical skills in the training of 16-17-year-old players.